

Shoyim Bo‘taye’v ijodida tabiat va inson munosabati badiiy talqini

SAODAT NARZIYEVA

Jizzax davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi magistranti

Ma’lumki, insonning barcha harakati ham faoliyat bo‘lmaydi. Ma’lum bir insoniy ehtiyoj, maqsad sari qaratilgan harakatgina faoliyat sanaladi. Shoyim Bo‘taye’vning «Qo‘rg‘onlangan oy» romanidagi obrazlarning barcha xatti-harakati faoliyatdir. Chunki ular yozuvchi maqsadiga bo‘ysundirilgan. Sirtidan qaraganda qahramonlarning faoliyati bilan bog‘liq voqealar bir-biriga uzviy bog‘lamagandek tuyuladi. Shundan romanni kompozitsion tarqoq deb xulosa chiqarishi mumkin, ayrim adabiyotshunoslar. Lekin unday emas. Voqealar yozuvchining ilgari surgan konsensiyasi – tafakkur yo‘nalishi orqali uzviy bog‘lanadi. Demak, mazkur roman ham yangi yo‘nalishda yozilgan. Ya’ni totalitar tuzum paytida yozilgan asarlar kabi qahramon faoliyati hukmron mafkuraga bo‘ysundirilmagan, nutq irod ettirilmagan. Ular erkin harakat qilishadi, o‘zi yashagan muhit, sharoit, zamonning xususiyatlarini ruhiyatlarida mujassam etishadi. Shundan ular faoliyati zamirida yotgan yozuvchi konsepsiyasini ilg‘ab olish qiyin. Uning uchun fikrlash darkor. Demak, roman voqealari tafakkur elagidan o‘tkazilsagina adib niyati anglashiladi. Anglash esa ma’naviyat sari qo‘yilgan qadamdir. Chunki yuqorida aytganimizdek, tafakkursiz ma’naviyat yuzaga kelmaydi. Demak, asar insonni komillikka undaydi, uning ahamiyati ham shundadir.

Roman ikki fasldai iborat. Birinchi qism «Avvalgi fasl», ikkinchisi esa «So‘nggi fasl» deb nomlanadi. Shoyim Bo‘taye’v bejizga romanini shunday faslga bo‘lmagan. U birinchi faslida otalar hayoti turmush tarzi, ruhiyati bilan kishini oshno qilsa, ikkinchi faslda kechagi jamiyat tili bilan aytganda, kelajak avlod – yoshlar hayoti qalamga olingan.

«Avvalgi fasl»da faoliyat ko'rsatgan qahramonlar – Ubaydulla chavondozi, Zokir bulbul, Tirkash bobo, Rashid bobolar tabiatga juda yaqin kishilar. Ular O'rtaqaynar qishlog'i, uning Rangon tog'ining har bir g'iyohini, hayvonot olamini behad sevadilar va ardoqlashadi. Ular tabiat bilan inson qismati ko'rinmas rishtalar bilan bog'langanligini his qilishadi, abadiy qobiliyatlariga bo'ysunishadi. Ubaydulla chavondozi Rangon tog'lariga oq bo'kan (sayg'oq) yana qaytib kelganini qishloq odamlariga aytganda barcha sevinadi. Chunki bu jonivorlar bu erni tark etganiga ko'p yillar bo'lgan edi. Ularsiz tog'lar ham bir g'arib, rangsiz holga tushib qolgan. Oq bo'kanlar bilan ezgulik qaytib keldi. Chunki ular shafqatsizlik tufayli o'z makonlarini tark etgandi.

Haqiqatni idrok etishning uch xil yo'li bor. Ya'ni nisbiy, mutloq va ilohiy bilish. Haqiqatning qaysi turini anglash kishining tarbiyasi, bilimi va tafakkurini ham darajaligiga bog'liq. Totalitar tuzum davrida faqat nisbiy haqiqat, ya'ni kommunistik partiyaning «rosti» anglandi. Mutloq haqiqatni – davr, zamon yaratgan axloqiy qiymatning tub mohiyatiga shuuri yetgan kishi ta'qib qilindi. Ilohiy haqiqat – yaratganni bilishga mutloq qo'yilmadi, Nisbiy haqiqatni anglatgan, uni o'zlashtirganlarning yo'liga esa shayton aralashgan. Bu yo'l ularni borsa kelmas sari boshladi. Chunki shaytonning ishi jahannam qariga boshlashdir. Lekin hayotda ilohiy haqiqatni anglaganlar bor edi. Romanda bu kabi haqiqatlar Ubaydulla chavondozi, Zokir bulbul, Tirkash bobo, Rashid bobolar tilida o'z ifodasini topgan.

Mashhur Kolumbiya yozuvchisi Gabriel Garsiya Marques «Shuni bilingki, tabiatning muvozanati buzilsa, unda yashovchi inson ham o'z qiyofasini yo'qotib qo'yadi» degan edi. Romanda bu fikrning haqiqat ekanligi Murtazo faoliyati orqali asoslangan va kishi shuuriga singdirilgan. U O'rozmat aka bilan Fotima ayaning yolg'iz farzandi. Uydagi inoqlik, ota-onaning bir-biriga bo'lgan mehri uni shafqatli, andishali, odamlarga, tabiatga o'ta mehrliligi, shafqatsizlikdan nafratlanadigan qilib tarbiyaladi. Hatto

kap-katta bo'lganda ham, qo'shnisi Ismat jo'jaxo'roz so'yganda, «Amakijon, tovuqni qo'yib yuboring!» - deb yalingan.

Xulosa qilib aytganda, roman inson qalbida ona tabiatga nisbatan mehr uyg'otadi, unga ruhan yaqinlashtiradi, qahramonlari qismatida insoniyatni islom va e'tiqodga da'vat etadi, inson aslida tabiat farzandi ekanligidan ogoh qiladi, inson va tabiat muammosining yangi qirralarini ochib beradi. Muhimi, yozuvchi yangicha mazmunga yangicha shaklni uyg'unlashtira olgan.